

**LEGAL TECH VA YURIDIK XIZMATLARNING
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA XAVFSIZLIGI**

Toshkent davlat yuridik universiteti

Jinoiy odil sudlov fakulteti 2-kurs talabasi

Qozoqova Malika

Qozoqovamalika42@gmail.com

ANNOTATSIYA. *Ushbu tadqiqot Legal Tech¹ va yuridik xizmatlarning raqamli transformatsiyasi va xavfsizligini o'rganishga bag'ishlangan. Maqolada Legal Tech va yuridik xizmatlar nima ekanligi, uning transformatsiyasi, afzallik va kamchiliklari, xavfsizlik darajasi har taraflama tahlil qilingan. Tadqiqot doirasida olimlarning fikrlari, mutahasislarning suhbatlari, so'rovnomalar, bir nechta rivojlangan davlatlar, xususan, AQSH, Buyuk Britaniya, Malayziya kabilarning statistik ma'lumotlari keltirib o'tilgan. Natijalar Legal Tech va yuridik xizmatlar transformatsiyalarining samaradorligini va yuqori xavfsizlik darajasiga ega ekanligini ko'rsatgan. Shu bilan birga, foydalanishdagi kamchiliklar, amaliy doiraning, texnik bazaning yetishmasligi va ayrim xavf-xatarlar mavjudligi haqqoniy yoritilgan. Yakuniy xulosada, Legal Techning yuridik xizmat ko'rsatish faoliyatini torligi kengaytirish, ayniqsa, buni mamlakatimizda joriy etish va xavfsizlik darajasini kuchaytirishga doir tavsiyalar ishlab chiqilgan. Ilmiy maqola yuridik soha vakillari va Legal Tech sohasi qiziquvchilari uchun foydali bo'ladi.*

KALIT SO'ZLAR: *Legal tech, raqamli transformatsiya, robot, sun'iy intellekt, BMT, IT, yuridik firma, advokat, avtomatlashtirish, yurisprudensiya, xalqaro tendensiya, sud ptotsessi, sud-tergov, kiberjinoyat, kompaniya, litsenziya, advokatlar palatasi, rentabellik, advokatlik byurosi, kiberxavfsizlik.*

KIRISH

<http://lex.uz>

lex.uz – O'zbekiston qonunchiligining huquqiy portal



Bugungi zamonaviy dunyoni axborot texnologiyalarisiz tasavvur qilish qiyin. Sun'iy intellekt barcha sohaning asosiy ish quroliga aylanib ulgurdi. Tibbiyot, farmatsevtika, bank, moliya, fan, ta'lim, biznes, arxitektura, dizayn va hokazolar shular jumlasidan. Ulardan biri huquq. Toshkent davlat yuridik universiteti sobiq rektori Rahim Hakimov 30-yanvar kuni "Yuridik amaliyotga xalqaro tendensiyalarni joriy qilish" mavzusidagi anjumanda sohaga raqamli texnologiyalarni joriy qilishning muhimligi haqida to'xtalib o'tgandi. "Hamma sohada raqamli texnologiyalar rivojlanayotganini ko'rib, bu boradagi bilimning zaruratini biz ham chuqur anglayapmiz. Universitetimiz talabalari zamonaviy axborot texnologiyalarini bilmaydigan bo'lsa, ular amaliyotda hech kimga kerak bo'lmaydi", - deydi Rahim Hakimov.² Huquq sohasiga ham yangi yuridik texnologiyalar va IT-xizmatlar kirmoqda. Bu "Legal tech" deb nomlandi. Yuridik texnologiyalar - huquqshunoslik amaliyotida qo'llanadigan dasturiy ta'minot va yuridik mutaxassislariga yuqori sifatli yuridik xizmatlar ko'rsatishda yordam beradigan raqamli vositalarni o'z ichiga oladi. "Legal tech" kasbiy yuridik faoliyat uchun axborot texnologiyalari xizmatlariga ixtisoslashgan va 2000-yillarning oxiridan boshlab iste'molchilarga axborot texnologiyalaridan foydalangan holda yuridik xizmatlar ko'rsatishga ixtisoslashgan biznes sohasi hisoblanadi. Shuningdek, "Legal tech" yuridik sohani raqamli vositalar bilan qamrab oluvchi, yuridik xizmatlarni avtomatlashtirilgan tarzda ko'rsatish, yuridik masalalarni raqamli texnologiyalar yordamida yechishga qaratilgan yurisprudensiya va axborot texnologiyalari sohalarining uyg'unligida hosil bo'lgan yo'nalishdir.

Kichik biznes va kam ta'minlangan aholiga huquqiy maslahat berish, ularning taklif va tashabbuslarini qabul qilishning yangi tizimini joriy etish, advokatlar ishtirokisiz huquqiy hujjatlarni tayyorlash imkoniyatini yaratish maqsadida, o'z-o'ziga huquqiy xizmat ko'rsatish "Legal tech – yurxizmat.uz"

2 <https://kun.uz>

Kun.uz – O'zbekiston va xalqaro yangiliklarni yorituvchi internet nashri. axborot tizimi 2021-yil 1-aprel kuni ishga tushirildi³. Legal tech – bu huquqiy



xizmatlarni taqdim etish, tadqiqotlar o'tkazish, shartnomalarni tuzish, hujjatlarni tahlil qilish va boshqa ko'plab yuridik vazifalarni bajarishda yordam beradigan texnologik vositalar va dasturiy ta'minotlar majmuasidir. Bularga sun'iy intellekt (AI), bulutli texnologiyalar, blokchain, ma'lumotlarni tahlil qilish va boshqalar kiradi.

Yuridik texnologiya – huquqshunoslik amaliyotida qo'llanadigan dasturiy ta'minot va yuridik mutaxassislar yuqori sifatli yuridik xizmatlar ko'rsatishda yordam beradigan raqamli vositalarni o'z ichiga oladi. Yuridik texnologiyaning bir qator turlari mavjud: "Cloud" – masalan, yuridik mutaxassislar va firmalar fayllar va hujjatlar nusxalarini raqamli saqlash uchun bulutdan foydalanishni boshladi. Bu ularga istalgan vaqtda va istalgan joyda hujjatlar papkasiga kirish va ularga o'zgartirish kiritish imkonini beradi. Bundan tashqari, LexisNexis va Westlaw kabi qidiruv tizimlari huquqiy qidiruvlarning ancha samaraliroq bo'lishini ta'minlagan. Shuningdek, elektron imzo dasturiy ta'minoti, virtual yuridik xizmatlar, sun'iy intellekt texnologiyasi huquq sohasining ixcham bo'lishiga yordam berdi. Sun'iy intellekt advokat ishlayotgan shunga o'xshash ishlar bo'yicha oldingi qarorlarni baholash uchun ishlatilishi mumkin. Bundan tashqari, sun'iy intellektdan advokatlarga kerakli tekshiruvni bajarishda yordam berish mexanizmi sifatida foydalanish mumkin. Sun'iy intellekt hatto yuridik mutaxassislar ish vaqtini elektronlashtirishda yordam berish uchun ham ishlatilgan. Yuridik texnologiya tarixini 1970-yillardan boshlab uchta to'lqinga bo'lish mumkin. Ularning har biri raqamli infratuzilmadagi fundamental yutuqlar (dasturiy ta'minot funksiyalarini yaxshilash, aloqa texnologiyalari, ma'lumotlarni saqlash imkoniyatlari va o'zaro ishlash standartlari) ta'sirini aks ettiradi. Birinchi to'lqin, taxminan 1970–1990-yillar. 1960-yillarda Yevropa va AQShda huquqiy tadqiqotlar va ma'lumotlar bazalari avtomatlashtirildi. Ushbu 3 <https://lawyer.ijro.uz>

E-huquqshunos – O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni, qaror va topshiriqlari monitoring qilish tizimi.



tizimlarning aksariyati eksperimental bosqichdan tashqarida rivojlanmagan bo'lsada, ular huquqiy ma'lumotlarni qidirish dizaynini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega bo'ldi. 1970-yillarning boshida AQShda Lexis va Westlaw yuridik xizmatlari tomonidan yirik tijorat platformalari ishga tushirilgan. O'sha o'n yillikning oxiriga kelib AQShdagi yirik yuridik firmalarning barchasi Lexisning mijozlari edi. 1970- yillarning oxiri va 1980-yillar davomida huquqiy ekspert tizimlari rivojlandi. AQSh,

Buyuk Britaniya, Italiya, Niderlandiya va boshqa mamlakatlarda tadqiqot dasturlari o'sishi kuzatildi.

Biroq 1980-yillarning oxiri 1990-yillarning boshiga kelib, konseptual asoslarni hisobga olmaganda, aksariyat loyihalar funksional jihatdan yangilikka uchramadi. Tizimlar juda o'ziga xos bo'lib, huquqning juda tor sohalarida ishlash uchun qurilgan yoki yuridik ekspertizadan farqli ravishda "byurokratik" qarorlar qabul qilishni ta'minlagan.

Ikkinchi to'lqin, taxminan 1991–2012-yillar. Ushbu davrda raqamli transformatsiya to'rtta asosiy texnologik o'zgarish tufayli amalga oshirildi. Birinchisi, qayta ishlash quvvati va ma'lumotlarni saqlashda sezilarli o'zgarishlar bo'ldi. Shaxsiy kompyuterdan foydalanish ortdi. Ikkinchidan, dasturiy ta'minot arzonlashdi, ilovalar assortimentini ishlab chiqishda tezkor dizayn texnikasiga o'tildi. Uchinchidan, internet, 1980-yillarning boshlarida yaratilgan bo'lsa-da, 1990-yillarning boshida keng tarqala boshladi. O'n yillikning ikkinchi yarmida esa innovatsiyalar to'lqinini yuzaga keltirdi. Taxminan 2000-yillarning o'rtalarida internetning navbatdagi innovatsion bosqichi boshlandi. Bu vaqt statik tarmoqdan dinamik yoki "ishtirokchi" internetga o'tish deb ataladi. To'rtinchidan, 2007-yildan keyin 3G aloqa tarmoqlari paydo bo'ldi. Hamda "aqlli telefon"ning chiqarilishi natijasida rivojlanish kuchaydi. 1990-yillarning boshida ba'zi yirik yuridik firmalar o'zlarining buyurtma tizimlarini ishlab chiqqan edilar (masalan, Plotnikoff va Woolfson). Internet huquqiy ma'lumotlarni qidirish uchun alohida terminal va CDROM cheklovlari talablarini bekor qildi. Bu esa yuridik firmalar uchun tijorat tizimlariga ish stolidan to'g'ridan-to'g'ri kirish imkonini berdi. Bundan tashqari,



1990-yillarning o'rtalaridan boshlab, huquqiy axborot institutlari tarmoqlariga bepul kirildi. Ushbu davrga kelib yuridik firmalar marketing vositalari sifatida veb saytlarini tuzishdi. "Web2.0" ning rivojlanishi bilan ko'plab statik "broshyura" saytlari mavjud edi (hali ham mavjud), ular yanada interaktiv bo'ldilar va ularga yuridik bozorning muhim funksiyalarini ta'minlovchi platformalar qo'shildi. 1995-yillarda shaxsiy kompyuterlar advokatlar uchun ish stolidagi standart vositaga aylandi. Amerika advokatlar assotsiatsiyasining 1995-yildagi kichik firmalar va yakka tartibdagi amaliyotchilarni o'rganishi shuni ko'rsatdiki, respondentlarning 87 foizi amaliyotlarida shaxsiy kompyuterdan foydalangan. 1990-yilda esa bu ko'rsatkich 59 foizni tashkil qilgan.

Nihoyat, ushbu bosqichda raqamlashtirish sud jarayonlarini ham qamrab oldi. Uchinchi to'lqin: 2012-yildan hozirgacha. 2010-yillarning o'rtasida investitsiyalarning ortishi yetuk huquqiy bozorlarda o'sishni ta'minladi. Ushbu o'sishning katta qismi startap faoliyatiga to'g'ri keldi. Avstraliyada 2015 va 2018-yillar oralig'ida bozorga 49 ta yangi firma kirgach, yuridik texnologiya sanoati deyarli ikki baravar ko'paydi. Braziliyada hozir 150 ga yaqin yuridik texnologik startap mavjud bo'lib, ular 2017 va 2019-yillar orasida uch baravar ko'paygan. Ushbu o'zgarishlar kompyuterning qayta ishlash quvvati, ma'lumotlarni saqlash, tarmoq kengligi va mobil texnologiyalarning doimiy yaxshilanishi va bunday yutuqlardan foydalangan dasturiy ta'minot innovatsiyalari bilan mustahkamlangan.⁴

Yuridik xizmatlarning raqamli transformatsiyasi bu advokatlar, yuridik firmalar va boshqa huquqiy xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar ish jarayonlarini optimallashtirish, mijozlarga xizmat ko'rsatish sifatini oshirish va samaradorlikni kuchaytirish uchun zamonaviy texnologiyalarni joriy qilishdir. Bu jarayonlar yuridik xizmatlarni yanada tezroq, aniqroq va qulayroq qilishga yordam beradi.

⁴ <https://huquqburch.uz>

Huquqburch.uz – Adliya vazirligi tomonidan yaratilgan, aholiga huquqiy axborot va maslahat beradi.



Maqolaning dolzarbligi shundaki, bugungi globallashtirish zamonida yuridik xizmatlarning avtomatlashtirilishi nafaqat shu soha vakillarining, balki xalqning ham vaqtini tejashga xizmat qilmoqda. Shunga qaramay bu yo'nalishda amalga oshirilishi kerak bo'lgan ishlar yetarlicha. Bu jarayon yurtimizga endi kirib kelganligi sabab, Legal tech mutaxassislari soni juda kam. Umuman olganda, huquqshunoslar kadrlarga ham ehtiyoj bor. Ma'lumot o'rnida, O'zbekistonda 8250 nafar fuqaroga bir advokat to'g'ri keladi. Taqqoslash uchun, AQSHda 256 nafar, Italiyada 260 nafar, Germaniyada 500 nafar, Qozog'istonda 4000 nafar fuqaroga bir advokat hisobida taqsimlanadi.

Tadqiqotning asosiy maqsadi Legal tech va avtomatlashtirish jarayonlaridagi xavfsizlik masalasini yoritib berishdan iborat. Ushbu maqolada keltirilgan ma'lumotlar yuridik va Legal tech sohasi vakillarining fikrlari, aniq faktlar va rivojlangan mamlakatlar tajribasidan olingan.

USULLAR

Maqolani yoritishda quyidagi bir nechta tadqiqot usullardan foydalanildi:

Adabiyotlar tahlili: Legal tech va raqamli transformatsiyaga doir kitoblar, ilmiy ishlar va boshqa manbalarga asoslangan holda mavzuga oid nazariy asoslar o'rganildi. Google Scholar, ResearchGate, Ziyonet va HeinOnline kabi online saytlardan foydalanildi.

Chuqurlashtirilgan intervyu: Tesla kompaniyasi asoschisi Ilon Musk va Alibaba kompaniyasi asoschisi Jek Ma o'rtasida bo'lib o'tgan suhbatda Ilon Musk Jekdan yaqin kelajakda AI lar ya'ni sun'iy intellekt insonlar o'rnini bosa olishi mumkinmi deb so'raydi. Jek Ma bu savolga yo'q deb javob beradi hamda aqlli texnologiyalarning afzalliklarini keltirib o'tgan holda, inson omili ustun turishini tushuntirib beradi. So'zlashuv davomida huquqiy faoliyatni yengillashtiruvchi bir nechta texnologiyalar haqida gap ketgan. Ularning qo'llanilishi natijasida yangi yuridik kasblar yaratilishi va ish sifatining oshishi haqida bir nechta misollar keltirishgan.

Qiyosiy tahlil: Chet el mamlakatlari va O'zbekistonda Legal tech va yuridik transformatsiya jarayonini taqqoslab o'rganish juda muhim. Negaki, tajriba



almashish orqali bilimlar boyitiladi. Misol uchun, ilk bora bu jarayon amaliyotda qo'llangan davlat – AQShda 1977-yilda “LexisNexis” yuridik texnologik kompaniyasi tashkil etilgan bo'lib, u ko'p tarmoqli ma'lumotlar bazalariga kirishni ta'minlaydi. Ushbu dastur jismoniy va yuridik shaxslarni huquqiy ma'lumotlar bilan ta'minlaydi, huquqiy bilimlarini oshiradi. “Hogan Lowers” kompaniyasi esa Legal tech loyihalari orasida biznesni kengaytirish yoki yangi bozorga kirishda qayta ro'yxatdan o'tishning o'ziga xos xususiyatlarini baholaydi. Ushbu dastur tadbirkorlar uchun juda qulay yuridik dastur bo'lib, ularning o'z faoliyatini qonuniy amalga oshirishida ko'makchi vazifasini bajaradi. Dasturlardan maqsad dasturchilar mahsuloti orqali foyda ko'rishi. Iste'molchilar esa huquqlarini himoya qilishda qo'shimcha himoya bilan ta'minlanadi. Hozir O'zbekistonda ushbu dasturlarga o'xshash faqatgina sanoqli saytlar mavjud. Bulardan biri “lex.uz” sayti hisoblanadi. Shu bilan birga 2010-yilda Buyuk Britaniyaning Lovells va AQSHning Hogan&Hartson firmalarining birlashishi natijasida yuzaga kelgan, dunyoning ko'plab mamlakatlarida mijozlarga yuridik maslahat beruvchi, xalqaro miqyosdagi taniqli yuridik firma Hogan Lovells sud jarayonlarini ehtimoliy baholash uchun “Prism” dasturidan foydalanadi. Bu dastur sud jarayonlarida bashorat qilish imkonini beradi. Fuqarolarni sud jarayonini to'liq va puxtarok o'rganishga majbur etishi bilan birga, ortiqcha sud va advokat uchun xarajatdan xalos etadi. Yurtimizda esa bunday dastur mavjud emas, o'rganuvchilar “sud.uz” saytida joylashtirilgan sud ishlarini ko'radi va xulosaga kelishadi xolos. Kelajakda davlatimizda ham yuqorida eslangan dasturlar yaratilishi ehtimoli katta. Chunki mamlakatda huquqiy bilim olishga talab o'smoqda. Bu esa, o'z navbatida, sud va advokatlarga ehtiyojni oshirmoqda⁵.

NATIJALAR

5 <https://cyber-law.uz>

Cyber-law.uz – kiberxavfsizlik, raqamli huquqlar va texnologiyalar bilan bog'liq yuridik masalalarni yoritishga ixtisoslashgan online platforma.

Nega Legal tech xavfsizligi shu qadar muhim? Afsuski, mijoz ma'lumotlarining hajmi, sezgirligi va qiymati yillar davomida



yuridik firmalarga zarar yetkazuvchi shaxslar uchun jozibador nishonga aylanib kelmoqda. SecurityScorecard nashrining ma'lumotlariga ko'ra, buzilishlarning uchdan biri uchinchi tomon hujumlari tufayli sodir bo'lgan. Ushbu buzilishlarning 75 foizi dasturiy ta'minot va boshqa texnologik mahsulotlar bilan bog'liq bo'lgan. Sababidan qat'iy nazar, ma'lumotlar buzilishining oqibatlari jiddiy va uzoq muddatli bo'lishi mumkin. Quyida xafsizlik sababli yuzaga keladigan ba'zi bir natijalarga to'xtalib o'tamiz.

Obro'ga zarar yetishi:

Yuridik firmalar o'z bizneslarini ishonch, halollik va maxfiylikka asoslab quradilar. Ma'lumotlar buzilishi mijozlar bilan hatto eng mustahkam aloqalarning ham buzilishiga va uzoq yillik mehnat natijasini darhol yo'qotilishiga olib keladi, bu esa rentabellikning pasayishiga, brendga va kompaniya obro'ga zarar yetishiga olib keladi.

Moliyaviy oqibatlar:

Yuridik firmaning biznesi bo'yicha uzoq muddatli ta'sirlardan tashqari, ma'lumotlar buzilishining moliyaviy ta'siri ham kata bo'lishi mumkin. Xizmat xarajatlari sirasiga tuzatish xarajatlari, sud-tergov xarajatlari va huquqiy xarajatlar, shuningdek, tartibga soluvchi jarimalar kiradi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Data Breach Report(Ma'lumotlar xavfsizligining buzilishi bo'yicha hisobot) ma'lumotlartiga ko'ra 2023-yilda butun dunyo bo'ylab yuridik kompaniyalarning avtomatik xizmat ko'rsatish bazasi uchun ma'lumotlar o'g'irlanishi tufayli ko'rilgan o'rtacha umumiy zarar qiymati 4,45 million AQSH dollarini tashkil qilgan.

Huquqiy jazolar:

Yuridik firmalar va advokatlar xizmatlarning maxfiyligini himoya qilish va mijozlarning shaxsiy ma'lumotlarini saqlash bo'yicha axloqiy majburiyatlarni bajarishga majbur. Ushbu majburiyatlarga rioya qilmaslik yuridik sanksiyalar, intizomiy chora-tadbirlar, jinoiy va ma'muriy jazolar qo'llashni keltirib chiqaradi. O'zbekiston qonunchiligida, umuman olganda, dunyo davlatlari huquq normalarida sun'iy intellekt va uning xavfsizligi masalasini tartibga soluvchi alohida qoidalar belgilanmagan. Shu sababli transformatsiya qilingan huquqiy xizmatlar himoyasi



uchun faqatgina unga mas'ul yuridik firma yoxud ish yuklatilgan advokat javobgar bo'ladi. Mijoz va dastur yaratuvchisi aybdor hisoblanmaydi. Advokatlar palatasi va ma'lumotlarni himoya qilish idoralari kabi tartibga soluvchi organlar, mizojlar va manfaatdor shaxslar tomonidan shikoyat kelib tushganda, advokatlarni jarimaga tortish, litsenziyalarini to'xtatish yoki advokatlikdan mahrum qilish choralarini qo'llashlari mumkin.

Ushbu mavzu doirasida so'rovnoma o'tkazildi. Natijada iki xil qarash vujudga keldi. Jamoatchilik vakillari va qonunchilik sohasi mutaxassislari javoblarida farqlar mavjud edi. Qonunchilik sohasi vakillari texnologiyaning salbiy jihatlariga ko'proq e'tibor qaratishgan (ayrimlar buni huquqshunos sifatida ular xavfga nisbatan ko'proq e'tiborli bo'lishlari kerakligi bilan izohlagan). Biroq keng xalq ommasi qonun sohasida texnologiyalarning qo'llanilishini, lekin barcha jarayonlar insonlar tomonidan boshqarib turilishini qo'llab-quvvatlashdi. Aksariyat fuqarolar sun'iy intellektni yoqlashsada, uning xavflari haqida qat'iy fikr bildirishgan.

Tadqiqotda ishtirok etganlardan AI lardan foydalanish bilan bog'liq xavotirlari va eng katta xavf-xatar haqida so'raldi. Jamoatchilik vakillari Legal techni qabul qilishda "kiberjinoyatchilik xavfi" (44%) eng katta xavotir ekanini bildirishdi. Bundan tashqari "ma'umotlar maxfiyligi" masalasi ham mizojlar uchun muhim bo'lgan.

Huquqiy xizmatlar tennologiyalari borasidagi jiddiy xavotirlardan biri – sun'iy intellekt "shaxsiy aloqani" yo'q qilishi bilan bog'liq bo'lib, mutaxassislarning katta qismi bu muammo texnologiya yordamida insoniy munosabatlarning yo'qotilishi ekanini aytishgan.

Yuqorida keltirib o'tilgan masalalarga obyektiv yondashilib quyidagi natijalar olindi:

- Yuridik mutaxassislar uchun huquqiy texnologiyalar haqida gap ketganda, asosiy tashvish ishsiz qolish edi. Ularning 57% bundan juda xavotirda ekanliklarini, 46% esa daromat miqdorining kamayib ketish xavfi mavjudligini qayd etishgan.



- Mijozlarning deyarli yarmi, ya'ni 49% "kiberjinoyat riski" mavjudligini, 14% esa bularning oldini olib bo'lmashligini aytishgan.

- So'rovnoma qatnashuvchilarining 28% inson omilining yo'qligidan, 17% foizi esa dastur buzulishlaridan shikoyat qilgan. Bu foydali va Covid davrida ajoyib qulaylik yaratdi, ammo bu tajovuz va zo'ravonlikka uchragan shaxslar uchun advokat bilan yuzma-yuz muloqot qilishning o'rnini bosa olmaydi. Texnologiyalar juda ko'p qo'llanilsa, huquqshunoslik kasblariga nisbatan katta zarar yetkazilishi mumkin deb qo'rqaman. Biz robotlar emasmiz. Yuridik firmalardan ustun jihatimiz ham, mijozlar kutgan narsa ham bizning muomala layoqatimiz hisoblanadi. Ayrim insonlar sovuq va hissiz robotlar bilan shaxsiy hayotga doir masalalarni so'zlashishdan qo'rqishadi. Negaki, advokatlar huquqiy maslahat berish bilan birga vaziyatga subektiv yondashadi. Bu esa xizmat foydalanuvchilair ishonchini ta'minlaydi.

Yuqorida olingan natijalar statistik ma'lumotlarga asoslanib olingan. Mazkur so'rovnomada 50 ming nafar shaxs ishtirok etgan.

MUHOKAMA

Huquqiy texnologiyalarning bugungi "dunyoviyligi" asosan sanoatning nihoyatda yaxshi va aniq tartibga solinishi bilan bog'liq. Masalan, yuridik raqamli xizmatlar yoki mahsulotlar provayderida sertifikatlash, ro'yxatdan o'tish yoki huquqshunosning boshqa tasdiqlangan maqomi bo'lmashligi kerak deb hisoblanadi. Dunyoda huquqiy texnologiyalar bozorini rivojlantirishga to'siqlar deyarli yo'q desak ham bo'ladi, chunki yuridik mahsulotlar va xizmatlar har kim tomonidan ishlab chiqarilishi va sotilishi mumkin. Rivojlangan davlatlarda hukumat va taraqqiyot institutlari ilg'or onlayn yechimlarni doimiy ravishda qo'llab-quvvatlab kelmoqdalar. Yuridik ma'lumotlar bazalari elektron shaklga o'tkazilgan. Ular hech bo'lmaganda kartoteka uchun material yoki neyron tarmoq uchun oziq sifatida xizmat qilishi mumkin. Barcha davlatlarda ham hukumat ushbu sohani qo'llabquvvatlamaydi. Ular boshqa sohalarga pul tikishni afzal ko'rishadi. Bu harakatni huquqiy bozorning sust rivojlanishi bilan izohlash mumkin. Ma'lumki,



ko'p davlatlarda "Legal tech" ishtirokchilarining qariyb 80 foizi hududlarda ishlaydi.

Va bu firmalarda ishchi soni ko'pi bilan 10 kishini tashkil qiladi. Bunday faoliyat jarayonida bitta texnologiya bir paytning o'zida bir necha insonga istalgan vaqtda va joyda xizmat ko'rsatishi mumkin.

Tadqiqot natijalari "Legal tech" va yuridik xizmatlar raqamli transformatsiyasi xavfsiz ekanligini ko'rsatdi. Ular quyidagi bir nechta usullarda ko'rib chiqildi. Quyida ularga batafsil to'xtalib o'tilgan. Yuridik texnologiyalarni ko'rib chiqishda xavfsizlik va maxfiylik masalalari albatta ko'tariladi, ammo buni hal qilishni uzoq kutmang. Ko'pgina firmalarda standart sotib olish jarayoni chuqur xavfsizlik baholashini o'z ichiga oladi. Ammo shu vaqtgacha siz ehtimol yechimlarni o'rganish, uchrashuvlar va takliflarni ko'rib chiqishda ancha vaqt sarflaysiz. Sotib olish bosqichida muhim xavfsizlik muammosiga duch kelish sizning amalga oshirish jadvalingizni deyarli albatta kechiktiradi. Shunday ekan, dastlabki muzokaralarda qatnashayotganingizda, xavfsizlik amaliyotlari va siyosatlar haqida ba'zi asosiy ma'lumotlarni to'plash muhimdir. Mana, jarayonning boshida yuridik firma va avtomatlashtirilgan advokatlik byurolaridan so'rashingiz kerak bo'lgan bir nechta savollar:

- Qaysi xavfsizlik sertifikatlariga egasiz?
- Ma'lumotlar maxfiyligi bo'yicha tegishli qonunchilik talablariga amal qilasizmi?
- Ular shaxsiy ma'lumotlarni shifrlash protokollariga amal qiladimi?
- Hujjatlarning saqlanish bazasi xavfsizmi?
- Xavfsizlik tekshiruvi o'tkaziladimi?
- Qanday kirishni boshqarish vositalari va siyosatlar mavjud?
- Ular o'z resurslariga egami?
- Platforma ichida boshqa foydalanuvchilar tomonidan ruxsatsiz kirish kuzatilmaydimi?

Yuridik texnologiya provayderlari ushbu savollarga tez va to'g'ri javob berishlari kerak. Agar javob ijobiy bo'lsa, siz bu kompaniyaga ishonishingiz



mumkin. Agar siz ishongan kompaniya xalqaro miqyosda ishlayotgan bo'lsa, unga qo'shimcha xalqaro talablar qo'llaniladi.

Yaqin yillargacha yurtimizda sun'iy intellektni nazorat qiluvchi birorta qonun yo'q edi. Ammo, prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan 2022-yil 15-aprel, O'RQ-764-son qarori bilan O'zbekiston Respublikasining "Kiberxavfsizlik to'g'risida"gi qonun qabul qilindi. Ammo raqamli texnologiyalarning xavfsizligi uchun ma'lum bir organ yoxud uni yaratgan shaxs javobgar etib belgilanmagan.

37-modda. Kiberxavfsizlik to'g'risidagi qonunchilikni buzganlik uchun javobgarlik:

Kiberxavfsizlik to'g'risidagi qonunchilikni buzganlikda aybdor bo'lgan shaxslar belgilangan tartibda javobgarlikka tortiladi. 6

XULOSA

Huquqiy xizmatlarning raqamli transformatsiyasidagi Legal Techning rivojlanishi yuridik faoliyatni amalga oshrishda yangi imkoniyatlarni ochdi va jarayonning samaraliroq, ochiqroq va mijozga yo'naltirilgan tarzda amalga oshirdi. Mazkur transformatsiya soha mutaxassislariga operatsiyalarni soddalashtirish, ma'lumotlarga asoslangan tahlildan foydalanish va foydalanuvchilar bilan munosabatlarni yaxshilash imkonini berdi. Ammo bu yutuqlar bilan birga xavfsizlik muammolari ham kelib chiqdi. Mijozlarning shaxsiy sirlarini himoya qilish, kompleks maxfiylik qonunlariga rioya qilish va kiberxavfsizlik tahdidlariga qarshi kurashish yuridik firmalar uchun asosiy ustuvor yo'nalishga aylanmoqda. 6 <https://lex.uz>

lex.uz – O'zbekiston qonunchiligining huquqiy portali. Legal Techning muvaffaqiyati yuridik sohaga kuchli kiberxavfsizlik choralari joriy qilish, doimiy xavfsizlik tekshiruvlarini o'tkazish va ishonchli aloqani yaratish qobiliyatiga bog'liq. Yuridik texnologiya xavflariga nisbatan xushyor bo'lish va moslashish yuridik xizmatlar raqamli transformatsiyasining barcha afzalliklaridan to'liq foydalana olish mumkin. Bu faol yondashuv ularga nafaqat mijozlarning ma'lumotlarini himoya qilish, balki xavfsiz va ishonchli



korporatsiyalar sifatida o'z obro'sini mustahkamlash imkonini beradi. Tezkor texnologik yangilanishlar davrida innovatsiya va xavf-xatardan holilik o'rtasidagi muvozanatni saqlash huquqiy sohaga zamonaviy mijozlarning talablarini qondirish va shaffoflik, himoya bo'yicha eng yuqori ko'rsatgichlarga erishish imkonini berdi. "Legal tech" huquqshunoslik sohasini tubdan o'zgartirmoqda va uning ahamiyati tobora ortib bormoqda. Huquqshunoslar uchun Legal tech vositalarini o'zlashtirish va ulardan samarali foydalanish raqobatbardosh bo'lib qolish va mijozlarga yuqori sifatli xizmatlarni taqdim etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Kelajakda legal tech yanada rivojlanishi va huquqshunoslar amaliyotining ajralmas qismiga aylanishi kutilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Research. Social acceptability of technology in legal services.
2. M.Hartung, MM Bues, G Halbleib. "Legal Tech".
3. TJ Toohey – Richmond journal of Law & Technology, Beyond Technophobia: Lawyer's ethical and Legal Obligations to monitor evolving Technology and Security risks.
4. TF Claypoole – Bus. L. Today, Practical Tech Lawyer: Advising a Company on Data Security Compliance, 2014.
5. Otabek Egamov, Jasur Umurzakov, Raqamli O'zbekiston 2030.
6. Raxmanov Shoxrux Bahodirovich, Transformatsion dasturlarning boshqaruvi. 2023.
7. Anvar Eshqobilov. Raqamli transformatsiyaning umumiy iqtisodiyotdagi o'rni haqida.
8. Intersection of Legal tech&Cybersecurity: Risks&Opportunities.
9. Legal tech that takes cyber security seriously.
10. Huquqburch.uz "Legal tech" tushunchasi va ahamiyati.
11. kun.uz, 2022.
12. Lex.uz.
13. <https://lex.uz/docs/-4820060>



14. https://www.europarl.europa.eu/doceo/document/TA-8-2017-0051_EN.html#title1
15. <https://www.it-park.uz/uz/itpark/news/prezident-murojaati-it-sohasini-va-itparklarni-rivojlantirish-haqida>
16. <https://yuz.uz/ru/news/iskusstvenny-intellekt---sovremennoe-trebovanie-vrazvitii-obestva-i-gosudarstva>
17. <https://lex.uz/ru/docs/-4873208>
18. <https://www.weforum.org/reports/the-future-of-jobs-report-2020/>
19. <https://lex.uz/ru/docs/-503095>.